



## ESG TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI VA STANDARTLARINING VUJUDGA KELISHI HAMDA ULARNING KORPORATIV HUQUQQA TA'SIRI

**Madaminov Dilshadbek**

Toshkent Davlat

Yuridik Universiteti magistranti. (dimamsn@mail.ru)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8112075>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 29<sup>th</sup> June 2023

Online: 30<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

*ESG, barqaror rivojlanish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, ESG-faktorlari, ESG standartlari, huquq tamoyillari.*

### ABSTRACT

*Maqola ESG (Environmental, Social, Governance) tushunchasi, mezonlari va tamoyillarining vujudga kelishi hamda rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan. Tashkilotlarning barqaror va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va boshqaruvni o'z ichiga olgan tamoyillarga asoslangan ESG mezonlari hamda tamoyillari, ularning uslubiy va nazariy asoslarining shakllanish bosqichlarining tarixiy tahlili keltirilgan. Bundan tashqari, ESG standartlari tushunchasining analizi, mazkur standartlarning tarkibiy qismlari huquq tamoyillari bilan taqqoslangan holda tahlili maqolada aks ettirilgan. ESG standartlari va xususiy huquq tamoyillari orasidagi uzviy bog'liqlik ularning umumiy tabiatidan kelib chiqadi. ESG standartlarining parametrlari hisoblangan barqarorlik, tizimni vujudga keltirishga bo'lgan moyillik va funksional xilma-xillik, ularni xususiy huquq tamoyillariga juda yaqinligi, hamohangligini belgilab bergan holda, zamonaviy talab hamda jamiyat umidlariga javob beradigan tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish turli usullarini samarali birlashtirish imkonini beradi.*

Butunjahon iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanmasligi va vujudga keluvchi global iqtisodiy inqirozlar dunyo iqtisodiy hamjamiyati uchun ushbu tizimni barqaror rivojlanishi hamda inqirozlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni jadal amalga oshirishga turtki bo'lmoqda. Korxonalarining bunday qiyin iqtisodiy sharoitlarda tanazzulga uchramasligi uchun shunday yondashuv tanlanishi kerakki, u kompaniyalarga barqaror rivojlanishni kafolatlashi zarur. Oxirgi yillarda jahonda barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish jamiyat hayoti va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tartibga soluvchi davlat organlari va mijozlarning turli va tez o'zgaruvchan talablaridan kelib chiqqan holda kompaniyalarning biznes modellari kelajakda mas'uliyatli ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (**ESG**: E - *environmental*, S - *social*, G -



*governance*) tamoyillariga tayangan holda faoliyat olib borilishini taqazo qiladi. Korporativ boshqaruvdan tortib davlat boshqaruvigacha bo'lgan bunday turli darajadagi keng ko'lamli o'zgarishlar davlat tomonidan qullab-quvvatlanishni, mutanosib milliy siyosatni, turli xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tadbirkorlikni jadal rivojlantirishning samarali usullarining ishlab chiqilishini talab qiladi<sup>1</sup>.

Barqaror rivojlanish va ESG mezonlari mas'uliyatli faoliyat va mas'uliyatli investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarini barpo etish va ularning faoliyatini tartibga solishdan kelib chiqadi.

ESG tushunchasining kelib chiqish xronologiyasini aksiyadorlik jamiyatlarining paydo bo'lishidan boshlash zarur. Aksiyadorlik jamiyatlari haqidagi ilk ma'lumotlar O'rta asrlarga borib taqaladi. Ilk hujjatlashtirilgan ma'lumot 1250 yilga tegishli: Frantsiyaning Tuluz shahridagi Bazakl un tegirmoni Jamiyatining (Société des Moulins du Bazacle) 96 ta aksiyasi sotilgan. Ikkinchi o'rinda 1553 yilda rasman tan olingan ingliz savdogar-avantyuristlarining kompaniyasi egallaydi<sup>2</sup>.

Biroq, 1602 yilda tashkil etilgan Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasini tom ma'noda ilk aksiyadorlik jamiyati desa bo'ladi chunki u birinchi marta kompaniyaning o'zi tomonidan tashkil etilgan Amsterdam fond birjasida o'z aksiyalarini muomalaga kiritgan. Shuningdek, bu kompaniya faoliyatida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lgan: barcha investorlarning cheklangan mas'uliyati mavjudligi, direktorlar kengashining tashkil etilganligi va doimiy korxonalar sifatida faoliyat olib borganligidir<sup>3</sup>.

XVIII asrdagi Sanoat inqilobi natijasida Buyuk Britaniya iqtisodiy faoliyatlar markaziga aylanadi va 1862 yili u erda "Kompaniyalar to'g'risida" qonun qabul qilinadi. Amerika, Hindiston kabi Britaniya mustamlakalari (fond birjalarining ochilish davri 1850-1875 yillar) o'z qonunchiliklarini Britaniya huquqiga asoslangan holda rivojlantirishadi. Masalan, Yaponiyada savdo kodeksi 1899 yilda qabul qilingan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korporatsiyalar AQShda XIX asr boshlarida, yani mustaqillikdan keyin barpo etila boshlashdi. 1870-yillarga kelib korporatsiyalarni tashkil etish bo'yicha etakchilik Nyu-Jersi shtatiga o'tdi. Bu shtatda 1875 yili bir qator liberal qonunlardan birinchisi – "Korporatsiyalar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. U korporatsiya kapitalining maksimal miqdori bo'yicha mavjud bo'lgan barcha cheklovlarni olib tashladi. Keyinchalik, 1888, 1889 va 1893 yillardagi legislatura (qonun qabul qiluvchi organ) tomonidan ushbu qonunga kiritilgan korporatsiyalashish hamda soliqlar haqidagi o'zgartirishlar korporatsiyalarga moliyaviy hisobotlarni e'lon qilish majburiyatidan ozod qildi. Chunki, ushbu hisobotlar faqat aksiyadorlarga taqdim etilishi kerak edi. Yirik korporatsiyalarning birlashuvi oqibatida trestlar (*trusts*) vujudga kela boshladi. Shu sababli Nyu-Jersi "trestlar onasi" nomiga ega bo'ldi.

<sup>1</sup> Жукова Е.В. Основные тенденции развития ESG–повестки: обзор в России и в мире // Вестник РЭУ им. Г. В. Плеханова - 2021 - Том 18 - № 6 (120) – 69-6. DOI: <http://dx.doi.org/10.21686/2413-2829-2021-6-68-82>

<sup>2</sup> Ключко В.Н. Первые европейские акционерные компании XVI-XVIII веков: особенности становления // Менеджмент и бизнес-администрирование. - 2014. - № 2. - С. 6-27.

<sup>3</sup> Berle A.A. and Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. N.Y., 1934, p. 73.



Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlari tizimi butun jahonga Evropadan tarqaldi, lekin faqat AQShdagina keskin rivoj topdi<sup>4</sup>.

Korporativ manfaatlar to'qnashuvining bosqichma-bosqich rivojlanishi kompaniyalarning kengayishi, boshqaruv investorlardan yollangan menejerlarga o'tishi bilan sodir bo'ldi. Kolumbiya universiteti professorlari Adolf Berle va Gardiner Minz 1932 yilda "Zamonaviy korporatsiya va xususiy mulk" (The Modern Corporation and Private Property) nomli asarida AQShda yirik jamoat korporatsiyalarining iqtisodiy hayotdagi roli tobora ortib borayotganiga o'z e'tiborlarini qaratishgan. Asarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1929 yilda 200 ta eng yirik nomoliyaviy kompaniyalar barcha kompaniyalarning hamma aktivlarining 58 foiziga egalik qilishgan hamda mulkchilik va nazorat bir biridan ajratilsa kompaniyalarning 44 foizi menejer (boshqaruvchi) lar tomonidan nazorat qilingan. Olimlar, aksiyadorlik jamiyatlari nafaqat o'z aksiyadorlari va/yoki boshqaruvchilari manfaatlarini ko'zlab, balki jamiyat manfaatlarini (masalan, adolatli ish haqi, ratsional davlat xizmati, biznesning uzluksizligini) ham inobatga olgan holda boshqarilishi lozimligiga alohida urg'u berishgan<sup>5</sup>.

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ESG kontseptsiyasi 1920-yillarda paydo bo'la boshladi. Aksiyalarni xarid qilishda kompaniyalarning real iqtisodiy ko'rsatkichlariga emas, balki fond birjasida aksiyalar narxlarining oshishiga e'tiborning qaratilishi, narxlarning spekulyativ oshishiga va o'z navbatida "iqtisodiy pufak"ning shakllanishiga olib keldi. Fuqarolar ilgari sotib olingan qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yib kredit evaziga yangi aksiyalarni sotib ola boshlashdi.

1960 va 1970 yillar orasida AQShda fuqarolik jamiyati patrialxal qadriyatlarida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Afro-amerikaliklarning fuqarolik huqularini ta'minlash bo'yicha va Vetnam urushiga qarshi norozilik namoyishlari kabi harakatlar bu davrni to'g'ri tavsiflashga yordam beradi. Ushbu nuqtai nazardan, davlatdagi ijtimoiy masalalarga hamda ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarga (*SRI-socially responsible investing*) ko'proq e'tibor qaratilishi zarurligi namoyon bo'ldi. Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar tarafdorlari bo'lgan aksiyadorlar to'g'ri belgilangan ustuvor vazifalar va ijtimoiy-axloqiy masalalar birinchi o'ringa ko'tarilishi kerakligini ta'kidlashdi. Investitsiya fondlari Vetnam urushida qatnashayotgan kompaniyalarning aksiyalarini o'z portfellaridan chiqarib tashlay boshlashdi va atrof-muhitni asrash hamda muhofaza qilishda, shuningdek, inson huquqlarini hurmat qilishda faol bo'lgan kompaniyalarning aksiyalarini portfellariga jalb qila boshlashdi. O'sha davrdan boshlab ijtimoiy harakatlar davlat miqyosidagi iqtisodiy faoliyatga tobora kuchayib borayotgan ta'sirni ko'rsata boshlashdi. Bunga yorqin misol sifatida, AQShda 1970-1980 yillarda mashhur bo'lgan Janubiy Afrika davlatidagi investitsiyaga qarshi harakatni keltirish mumkin. O'shanda Janubiy Afrikalik tadbirkorlarni investitsiya fondlaridan uzib, ularga boshqa davlatlarga sarmoya kiritishni ta'qiqlashgan edi.

Ayni paytda, Evropada jamoatchilik fikri investitsiya faoliyatining olib borilishida ijtimoiy axloq asoslariga qay darajada rioya qilinayotganligiga alohida e'tibor qarata boshladi

<sup>4</sup> Дзеранова С.Ю. Возникновение и развитие понятия, принципов и стандартов ESG. В сборнике: Тенденции, проблемы и перспективы развития региональных кластеров. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Под редакцией В.Н. Немцева, А.Г. Васильевой. Магнитогорск, 2022. С. 19-27.

<sup>5</sup> Дементьева А.Г. Современная концепция корпоративного управления. Вестник МГИМО Университета. 2008. № 2 (2). С. 82-89.



va bunday qarashlar asta-sekin xayriya fondlari, ta'lim muassasalari hamda jismoniy shaxslar orasida keng tarqaldi.

1980-yillardan boshlab AQSh hukumati mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat o'rnini kamaytira boshladi. Har bir korporatsiya qisqa muddat ichida o'zining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirishi va/yoki xalqaro arenada raqobatga bardoshligini oshirishi kerak edi. Buning oqibatida korporativ qo'shilish va qo'shib olishlar (corporate M&As) soni keskin oshdi. Shu davrdan boshlab "aksiyadorlik qiymatini maksimal darajada oshirish" qarashi yagona korporativ maqsad sifatida hukmron bo'la boshladi. Institutsional (juda yirik) investorlar tashqi direktorlar kabi, korporativ boshqaruvda muhim rol o'ynay boshladilar va investitsiya obyekti bo'lgan kompaniyalarda ovoz berish hamda boshqaruv jamoasini cheklash huquqiga ega bo'lishdi<sup>6</sup>. Bunda investorlarning dunyoqarashi kompaniyaning tashqi siyosatiga juda katta ta'sir ko'rsata boshladi. 1990-yillarga kelib ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya tarafdorlari guruhlarining investorlarga bo'lgan ta'sirining tobora oshishi ESGga qaratilgan sarmoyalarning oshishiga olib keldi. Iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhit bilan uyg'unlikda to'g'ri boshqarilmasa, kompaniyaning omon qolishi qiyin bo'lishi tezisigaasoslangan falsafa ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni rag'batlantirish uchun asos bo'ldi. Korparatsiyaning yiriklashuvi va globallashuvi jarayonida uning ishtirokchilarning tarkibi ham o'zgaradi.

Biroq XX asr 60-yillarining oxiri – 70-yillarning boshlarida postindustrializmga o'tish davrida butun tizimlarning modernizatsiyasi natijasida insoniyat aholining haddan tashqari ko'payishi, ortiqcha ishlab chiqarish, ekologik ofatlar, cheklangan tabiiy resurslar tufayli yuzaga kelgan global inqiroz yoqasida qoldi hamda ilmiy adabiyotda **VUCA** (volatility — beqarorlik, **uncertainty** — noaniqlik, **complexity** — murakkablik, **ambiguity** — mavhumlik) nomini olgan dunyoga kelib qoldi. Butun insoniyat uchun xavf tug'dirgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun olib borilgan shoshilinch xalqaro o'zaro yordam barqaror rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishiga va keyinchalik, kelajakda ESG standartlarining paydo bo'lishiga olib keldi<sup>7</sup>. Barqaror rivojlanishni ta'minlash faoliyatining asosini inson haqidagi g'amxo'rlik tashkil qilishi barcha tomonidan e'tirof va e'lon qilindi. Insonlar tabiat bilan uyg'unlikda sog'lom yashash va samarali mehnat qilish huquqiga egadirlar<sup>8</sup>.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi rasman ilk bor 1987 yilda BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (**UNCED** United Nations Conference on Environment and Development - "Brundtland komissiyasi")ning "Bizning umumiy kelajagimiz" ma'ruzasida shakllantirildi va keng jamoatchilikka e'lon qilindi. Tayyorlangan ma'ruzada "barqaror rivojlanish" atamasi zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondirish va hozirdagi insoniyat faoliyatini davom ettirish kelajak avlodlarga zarar keltirmaydigan rivojlanish sifatida

<sup>6</sup> Ткаченко И. Н. На пути к «сознательному» капитализму. От Маркса до современности // Экономика региона. — 2018 — Т. 14, вып. 3 — С. 725-739

<sup>7</sup> Хамидуллина Ф. И., Газизуллин Р. И. Принципы права и стандарты ESG в сфере социально ответственного предпринимательства // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 12. — С. 21–30. — DOI: 10.17803/1729-5920.2022.193.12.021-030.

<sup>8</sup> Декларация Рио-де-Жанейро по окружающей среде и развитию: принята 14 июня 1992 г. // Действующее международное право. М., 1996. Т. 3. С. 687–692.





tushuntirildi hamda ushbu konsepsiya tufayli joriy faoliyat va ehtiyojlarni qondirish o'rtasida muvozanat mavjudligi belgilandi<sup>9</sup>.

“Barqaror rivojlanish” atamasi 1992 yilda BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha navbatdagi konferensiyasida (UNCED) keng e'tirof etildi va u erda birgalikda ishlab chiqilgan “Kun tartibi 21 – **Agenda 21**” hujjati qabul qilindi. Mazkur hujjat milliy hukumatlar tomonidan global barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar dasturiga (yo'l xaritasiga) aylandi.

1997 yilda keyinchalik barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot beruvchi tashkilotlar tomonidan ixtiyoriy foydalanish uchun xalqaro hisobot standartiga aylangan Global hisobot tashabbusi (Global Reporting Initiative – **GRI**) yaratildi. GRIning asosiy tamoyili – turli operatsiyalar bo'yicha ularning tub mohiyatini ochib beruvchi talablarni aniqlash va belgilash hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish g'oyasi juda keng va umumiy shaklda turli xil xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan edi<sup>10</sup>. Aslida, bu tashabbus, davlatlar va boshqa sub'yektlarning atrof-muhit sifati, iqtisodiyotning holati va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan turli manfaatlar muvozanatining maqbul shakli va asosini topishga qaratilgan urinishlardan biri edi. Keyinchalik davlatlar tarmoq va tizim muammolarini aniqlashga ko'maklashadigan rivojlanish maqsadlarini shakllantirdilar va ushbu maqsadlar doirasida turli yo'nalishdagi vazifalarni hal etishga chaqirdilar. Dastlab rivojlanish bo'yicha kun tartibi (Agenda) 2000 yildagi Mingyillik rivojlanish Maqsadlari (Millennium Development Goals - **MDGs**)da belgilangan. Ular erishilishi maqsad qilingan 8 ta maqsad, 18 ta vazifa va 48 dan ortiq ko'rsatkichlardan tashkil topgan bo'lib, avvalambor iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan hamda asosan, keng qirrali ijtimoiy jihatlariga ega bo'lgan vazifalarni qamrab olishgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishda xususiy sektor va fuqarolik jamiyatini jalb qilish amaliyoti Mingyillik rivojlanish Maqsadlari (MRM)ning qabul qilinishidan ancha oldin boshlangan edi. 2000-yilda BMT Bosh kotibi K.Annan tashabbusi bilan korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) va barqaror rivojlanish (BR) sohasidagi biznes uchun xalqaro **Tashabbus** – BMTning Global shartnomasi (**GSh**) tuzildi. Ushbu Tashabbus, turli siyosiy, iqtisodiy, ekologik, madaniy, geografik va boshqa sharoitlarda inson huquqlari, mehnat munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 10 ta umumiy tamoyilni qo'llab-quvvatlaydigan va ularni amalga oshirishda mas'ul bo'lgan kompaniyalarni safarbar etishga qaratilgan bo'lib, hozirgi kunda mazkur kompaniyalar Barqaror rivojlanish Maqsadlari(BRM)ni e'tirof etgan holda, ularga erishishga juda katta hissa qo'shishmoqda<sup>11</sup>.

BMT tomonidan keltirilgan rasmiy ma'lumotga ko'ra “160 dan ortiq mamlakatlardan 9500 dan ortiq kompaniya va 3000 dan ortiq notijorat tashkilotlari Global shartnomaga a'zo bo'lib, ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan”<sup>12</sup>.

<sup>9</sup> Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития от 04.08.1987 A/42/427. С. 59 // URL: chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf

<sup>10</sup> Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций от 08.09.2000 A/RES/55/2 // URL: https://www.un.org/ru/documents/decl\_conv/declarations/summitdecl.shtml

<sup>11</sup> Национальная сеть Глобального договора ООН в России // URL: http://globalcompact.ru/about/.

<sup>12</sup> Хроника ООН. Расмий сайт. URL: https://www.un.org/ru/36167.



2003 yilda inson huquqlari bo'yicha Komissiyaning inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish quyi Komissiyasi transmilliy korporatsiyalar va boshqa tadbirkorlik sub'ektlarining inson huquqlari sohasidagi majburiyatlari to'g'risidagi Normalarni qabul qildi. Bundan maqsad transmilliy korporatsiyalar va boshqa tashkilotlarni inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish jarayonlariga yanada faol jalb etish orqali barqaror rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash bo'lgan.

Umumbashariy muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishga xususiy sektorni jalb etish jarayonidagi muhim qadam turli davlatlardan yig'ilgan 20 ta eng yirik investorlarni birlashtirgan guruh tomonidan BMTning Global shartnomasi asosida ishlab chiqilgan Mas'uliyatli Investitsiya **Tamoyillari** (Principles for Responsible Investment - Tamoyillar) hisoblanadi<sup>13</sup>. O'z faoliyati davomida ishchi guruh oltita tamoyilni ishlab chiqdi. Bular

- Investitsiyaviy tahlilni o'tkazish va qarorlarni qabul qilish jarayonlariga ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv (ESG) bilan bog'liq jihatlarni kiritish;
- siyosat va amaliyotga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalarini kiritish;
- investitsiyalarni qabul qiluvchilardan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalari bo'yicha tegishli ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qilish;
- investitsiya sektori doirasida Tamoyillarni qabul qilish va amalga oshirishga ko'maklashish;
- ushbu Tamoyillarni amalga oshirish samaradorligini ko'tarish;
- mazkur Tamoyillarni amalga oshirish va erishilgan o'zgarish hamda yutuqlar haqida ma'lumot berish<sup>14</sup>.

Umumiy e'tirofga ko'ra, mas'uliyatli investitsiya Tamoyillarining qabul qilinishi bilan ESG-tamoyillarining xususiy tashkilotlarning turli siyosatlariga chuqur kirib borishi boshlangan<sup>15</sup>. Hozirgi kunda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurati xususiy sektorda ko'pchilik tomonidan tan olingan. Masalan, Global hisobot tashabbusi (GRI) tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1993 yildan 2013 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha hisobotlarni taqdim qiladigan kompaniyalar ulushi 12 dan 71% gacha oshdi. 2020 yil yanvar oyida o'sha paytda boshqaruvida 7 trillion dollardan ortiq mablag' bo'lgan eng yirik investitsiya kompaniyasi BlackRock o'zining investitsiyaviy yondashuvi markaziga ekologik barqarorlikni qo'yishini e'lon qildi, sababi iqlim bilan bog'liq xavf-xatarlar investitsiyaviy xavf degan xulosa kelganligidir. Bu o'z navbatida kapitalning "barqaror" biznes sari bo'lgan tezkor harakatini yanada rag'batlantirdi<sup>16</sup>. 2005 yilda bir guruh xalqaro institutsional investorlar BMT shafeligida va shaxsan Bosh kotib Kofi Annan

<sup>13</sup> Mas'uliyatli investitsiya Tamoyillari Assotsiatsiyasi. Rasmiy sayt. URL: <https://www.unpri.org/about-us/what-are-the-principles-for-responsible-investment>

<sup>14</sup> URL: <https://www.unpri.org/pri/what-are-the-principles-for-responsible-investment>.

<sup>15</sup> Fisch J. E. Making Sustainability Disclosure Sustainable // Georgetown Law Journal. 2019. Vol. 107. P. 931—932.

<sup>16</sup> Scanlan M. K. Climate Risk is Investment Risk // Journal of Environmental Law and Litigation. 2021. Vol. 36. P. 4, 20—22.



tashabbusi bilan hozirgi kunda aksariyat kompaniyalar faoliyatini belgilab beruvchi ESG tamoyillarini shakllantirdilar<sup>17</sup>.

ESG-tamoyillari barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan bo'lib ular tom ma'noda huquqiy hisoblanmaydilar. Biroq, manfaatdor jismoniy shaxslar va davlatlarning ESG-tamoyillariga bo'lgan alohida e'tibori ularga huquqiy ta'sir choralarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Hozirgi vaqtda bir qator yurisdiksiyalarda ESG-tamoyillariga u yoki bu qism va darajada rioya qilish to'g'risida huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Masalan, 2014 yildagi Evropa Ittifoqining moliyaviy bo'lmagan va xilma-xillik bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risidagi Direktivasi<sup>18</sup>. Xitoy, Daniya, Malayziya va Janubiy Arfrika davlatlarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qiladigan qoidalar mavjud.

Bundan tashqari, hozirgi kunda ESG bo'yicha xalqaro va milliy darajada ko'plab xilma-xil standartlar, tavsiyalar va normative hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan<sup>19</sup>. Shu bilan birgalikda turli xil huquqiy vositalarning mavjudligiga qaramasdan ESG-tamoyillarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalar o'z echimini topmagan. Masalan, yuqorida keltirib o'tilgan EI direktivasi tegishli ma'lumotlarni oshkor qilinishini talab qiladi, lekin hisobot standartlariga qo'yiladigan talablarga aniqlik kiritmaydi. Bu esa o'z navbatida ularning sonini hisobga olgan holda huquqiy tartibga solish samaradorligini va manfaatdor tomonlar uchun ahamiyatini kamaytiradi.

Hozirda mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda ESG bilan bevosita bog'liq bo'lgan atamalarga to'xtaladigan bo'lsak ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

**ESG-yondashuv.** Boshqaruvdagi ESG-yondashuv uchta asosiy qismdan iborat: kompaniyaning asosiy faoliyati davomida ekologik omillarini hisobga olish (bu omil ko'pincha ustuvorlikka ega), ijtimoiy mas'uliyat va barcha manfaatdor tomonlar bilan samarali korporativ hamkorlikni tashkil etish.

**ESG-tamoyillari.** Mas'uliyatli investitsiya tamoyillari (PRI) ijtimoiy, ekologik va boshqaruv omillarini investitsiyaviy strategiyalariga kiritish orqali uzoq muddatli investitsiyalarda xavf (tavakkal)ni minimallashtirish uchun xalqaro investorlar tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ixtiyoriy qoidalar to'plami hisoblanadi.

**ESG-omillari.** Xatarlarni (tavakkalchilikni) yanada yaxshiroq boshqarish va investitsiyalarning barqaror va uzoq muddat davomida qaytishi ta'minlash uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda ESG omillarini hisobga olish zarurati.

1. Ekologik: iqlim o'zgarishi, issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi, tabiiy resurslarning kamayishi (shu jumladan ichimlik suvining etishmasligi), chiqindilar va ifloslanish, o'rmonlarning kesilishi.

<sup>17</sup> Беляева И.Ю. ESG-факторы как инструмент формирования деловой репутации / И.Ю. Беляева, Н.П. Козлова, О.В. Данилова // Теоретические основы развития экономических систем в современных условиях. – 2021. – №4. – С.16.

<sup>18</sup> Directive 2014/95/EU of the European Parliament and of the Council of 22 October 2014 amending Directive 2013/34/EU as regards disclosure of non-financial and diversity information by certain large undertakings and groups // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0095>.

<sup>19</sup> Мажорина М. В. ESG-принципы в международном бизнесе и «устойчивые контракты» // Актуальные проблемы российского права. 2021. Т. 16. № 12. С. 188—189.



2. Ijtimoiy: mehnat sharoitlari (shu jumladan qullik, bolalar mehnati), mahalliy jamoalar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, gender tarkibi.

3. Boshqaruv: yuqori rahbariyatning (top managers) ish haqi, poraxo'rlik va korrupsiya, siyosiy lobbichilik va xayriyalar, direktorlar kengashining tuzilishi va gender tarkibi, soliq strategiyasi, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar va boshqalar. (Batafsilroq - BMTning XXI asr kun tartibi – Agenda 21 da, 1992 yil).

**ESG xatarlari.** Atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy muammolar va korporativ boshqaruv bilan bog'liq xavf-xatarlardir (BMTning Mas'uliyatli investitsiya Tamoyillari, 2006 yil). Asosiy xatarlar beshta bo'lib, ular korporativ boshqaruv, kiberxavfsizlik, iqlim, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi hamda yangi texnologiyalardan iborat. (Barqaror rivojlanish sohasida hisobot Standarti bo'yicha, 2011 yil)

**ESG-standartlari.** Umumiy, yozilmagan ESG-tamoyillari<sup>20</sup>:

1. Tabiatni, atrof-muhitni ifloslantirishni to'xtatish yoki kamida zararni kamaytirish. Masalan, atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish, ishlab chiqarishda tabiiy mo'ynadan foydalanishni to'xtatish.

2. Jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish yoki salbiy ta'sirni kamaytirish. Garvard Biznes maktabi darslarida allaqachon kompaniyalarni biznes ko'rsatkichlari bo'yicha emas, balki kompaniyalarning jamiyatga qo'shgan hissasi va unga ta'siri bo'yicha baholashni o'rgatishmoqda.

3. Kompaniyani boshqarish sifatini oshirish. Bu o'ta keng kategoriya bo'lib, nafaqat buxgalteriya hisobi sifatini yaxshilash va kompaniya boshqaruvining shaffofligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni, balki kompaniya ichidagi munosabatlarni yaxshilash bo'yicha harakatlarni ham qamrab oladi.

Global hisobot tashabbusi (GRI) tomonidan ishlab chiqilgan ESG-standartlari. Ushbu ESG-standartlari kompaniya faoliyatining ijtimoiy nuqtai nazardan muhim bo'lgan va kompaniyaning manfaatdor tomonlariga ta'sir qiladigan jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tartibini belgilaydi.

GRI talablari ko'ra, kompaniyalar manfaatdor tomonlar bilan konsultatsiyalashish davomida ular uchun muhim va dolzarb bo'lgan masalalarni aniqlab olishlari zarur.

GRI butun dunyo bo'ylab biznes va hukumatlarga ular barqaror rivojlanishga, xususan, iqlim o'zgarishi, inson huquqlari, korporativ boshqaruvning samaradorligi hamda ijtimoiy farovonlik kabi muhim sohalarda qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunishga, shuningdek, bu muammolarni hal qilish bo'yicha olib borilgan ishlar haqida ma'lumot berishga yordam beradi. Bu ekologik vaziyatni yaxshilash va barcha fuqarolar uchun ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan foyda keltirish bo'yicha real harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi. GRIning barqaror rivojlanish standartlari jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda juda ko'p va keng miqdordagi manfaatdor tomonlarning faol ishtirokida ishlab chiqilgan.

**ESG-tavsiyalari.** Barqaror rivojlanish hisobotlari standarti bo'yicha kengash (**SASB** - Sustainability Accounting Standards Board) ESGning barcha uch jihati (o'lchovi) bo'yicha

<sup>20</sup> Чувькина И.А. ESG-инвестирование: мировой и российский опыт // Экономические и социальные проблемы России. – 2022. – №1. – С. 95-110.





hisobotlarning bo'lim va ko'rsatkichlari bo'yicha 77 ta tarmoq uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqqan<sup>21</sup>.

Yuqori ESG standarti kompaniyalarning bevosita ishbilarmonlik obro'siga va buning oqibatida kompaniyaning foyda olishiga ta'sir ko'rsatadi, chunki mazkur standartlarni yuqori ko'rsatkichda tutuvchi tashkilotlar keyinchalik bir qator aniq afzalliklarga ega bo'ladilar. Bu afzallik va ustunliklar quyidagilardan iborat:

1. **Investorlar uchun yuqori jozibadorlik.** "Yashil" investitsiya fondlari va ijtimoiy mas'uliyatli investorlar ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan korxonalariga ko'proq sarmoya kiritadilar.
2. **Yuqori (foyda) samaradorlik.** Yuqori va baland ESG ko'rsatkichlariga ega bo'lgan kompaniyalar boshqa kompaniyalarga nisbatan yuqori daromad keltiradilar.
3. **Ancha yuqori va baland moliyaviy ko'rsatkichlar.** Yuqori ESG past ko'rsatkichli ESGga nisbatan kapital xarajatlarni kamaytirish, daromadni barqarorlashtirish va bozor bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish imkonini beradi.
4. **Moslashuvchanlik.** Rivojlanayotgan biznes modellar texnologiyalar va tartibga soluvchi qoidalarning buzilish oqibatlarini minimallashtirishga yordam beradi.
5. **Turli normalarga muvofiqlik.** Qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasi va texnologiyalaridan foydalanish va ushbu texnologiyalarga sarmoya kiritish uglerod miqdorini kamaytirish va ekologik soliq xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi.
6. **Innovatsiyalar.** Birgalikda foydalanish va iste'mol qilish iqtisodiyotining rivojlanishini rag'batlantiruvchi texnologik yutuqlar innovatsiyalarning joriy qilinishiga hamda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.
7. **Ijobiy imidj.** ESG talablariga rioya qiladigan va javob beradigan korxonalar xodimlar va mijozlar tomonidan o'z brendiga nisbatan yanada ijobiy munosabatda bo'lishiga sababchi bo'ladilar<sup>22</sup>.

Shunday qilib, ESG tamoyillari tushunchalarining paydo bo'lishi va rivojlanishining tahlili shuni ko'rsatyaptiki, bu mavzu bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir. Azaldan beri jamiyat hamda diniy institutlar ijtimoiy mas'uliyatli biznesni joriy etish, tartibga solish va uni yuritish maqsadida bozor ishtirokchilariga turli ta'sir qilish choralarini qo'llagan. Bu yo'nalish jamiyat a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga umumiy mulkchilik, umumiy (birgalikdagi) foyda, korporatsiyalashuv, umumiy javobgarlikning joriy etilishi bilan yanada faollashdi. Globallashuv hamda sayyoramizdagi iqlim sharoitining yomonlashuvi bu yo'nalishga qo'shimcha ahamiyat berdi. Hozirgi kunda ESG mezonlari xalqaro va milliy qonunchilik, tartibga soluvchi organ va savdo maydonchalarining me'yoriy hujjatlari va korporativ amaliyotda o'z aksini topgan. ESG asosida investitsiyalashtirish strategiyalari va biznesni yuritish keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Lekin shunday bo'lsada ESG kontseptsiyasi bo'yicha umumiy tushuncha, terminologiya va metodologik yondashuvlar hali ishlab chiqilmagan.

<sup>21</sup> URL: <https://sasb.org/standards/>

<sup>22</sup> Международный опыт применения стандартов ESG («environmental, social, governance») и возможности его использования в России: аналитический доклад / Российско-британская рабочая группа по корпоративному управлению. М., 2020. URL: [https://mfc-moscow.com/assets/files/analytics/doklad\\_ESG\\_june\\_2020.pdf](https://mfc-moscow.com/assets/files/analytics/doklad_ESG_june_2020.pdf)



## References:

1. Жукова Е.В. Основные тенденции развития ESG–повестки: обзор в России и в мире // Вестник РЭУ им. Г. В. Плеханова - 2021 - Том 18 - № 6 (120) – 69-б. DOI: <http://dx.doi.org/10.21686/2413-2829-2021-6-68-82>
2. Ключко В.Н. Первые европейские акционерные компании XVI-XVIII веков: особенности становления // Менеджмент и бизнес-администрирование. - 2014. - № 2. - С. 6-27.
3. Berle A.A. and Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. N.Y., 1934, p. 73.
4. Дзеранова С.Ю. Возникновение и развитие понятия, принципов и стандартов ESG. В сборнике: Тенденции, проблемы и перспективы развития региональных кластеров. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Под редакцией В.Н. Немцева, А.Г. Васильевой. Магнитогорск, 2022. С. 19-27.
5. Дементьева А.Г. Современная концепция корпоративного управления. Вестник МГИМО Университета. 2008. № 2 (2). С. 82-89.
6. Дзеранова С.Ю. Возникновение и развитие понятия, принципов и стандартов ESG. В сборнике: Тенденции, проблемы и перспективы развития региональных кластеров. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Под редакцией В.Н. Немцева, А.Г. Васильевой. Магнитогорск, 2022. С. 19-27.
7. Дементьева А.Г. Современная концепция корпоративного управления. Вестник МГИМО Университета. 2008. № 2 (2). С. 82-89.
8. Хамидуллина Ф. И., Газизуллин Р. И. Принципы права и стандарты ESG в сфере социально ответственного предпринимательства // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 12. — С. 21–30. — DOI: 10.17803/1729-5920.2022.193.12.021-030.
9. Декларация Рио-де-Жанейро по окружающей среде и развитию: принята 14 июня 1992 г. // Действующее международное право. М., 1996. Т. 3. С. 687–692.
10. Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития от 04.08.1987 A/42/427.C.59 // URL:<chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf>
11. Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций от 08.09.2000 A/RES/55/2 // URL: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/summitdecl.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/summitdecl.shtml)
12. Fisch J. E. Making Sustainability Disclosure Sustainable // Georgetown Law Journal. 2019. Vol. 107. P. 931—932.
13. Scanlan M. K. Climate Risk is Investment Risk // Journal of Environmental Law and Litigation. 2021. Vol. 36. P. 4, 20—22.
14. Беляева И.Ю. ESG-факторы как инструмент формирования деловой репутации / И.Ю. Беляева, Н.П. Козлова, О.В. Данилова // Теоретические основы развития экономических систем в современных условиях. – 2021. – №4. – С.16.
15. Directive 2014/95/EU of the European Parliament and of the Council of 22 October 2014 amending Directive 2013/34/EU as regards disclosure of non-financial and diversity



- information by certain large undertakings and groups // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0095>.
16. Мажорина М. В. ESG-принципы в международном бизнесе и «устойчивые контракты» // Актуальные проблемы российского права. 2021. Т. 16. № 12. С. 188—189.
  17. Чувькина И.А. ESG-инвестирование: мировой и российский опыт // Экономические и социальные проблемы России. – 2022. – №1. – С. 95-110.
  18. Международный опыт применения стандартов ESG («environmental, social, governance») и возможности его использования в России: аналитический доклад / Российско-британская рабочая группа по корпоративному управлению. М., 2020. URL: <https://mfc-moscow.com/assets/files/analytics/doklad ESG june 2020.pdf>
  19. Национальная сеть Глобального договора ООН в России // URL: <http://globalcompact.ru/about/>.
  20. Хроника ООН. Rasmiy sayt. URL: <https://www.un.org/ru/36167>.
  21. Mas'uliyatli investitsiya Tamoyillari Assotsiatsiasi. Rasmiy sayt. URL: <https://www.unpri.org/about-us/what-are-the-principles-for-responsible-investment>
  22. URL: <https://www.unpri.org/pri/what-are-the-principles-for-responsible-investment>.
  23. URL: <https://sasb.org/standards/>